

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BIZNES VA TADBIRKORLIK TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAHLIL TIZIMI

Kamilova Durdona Kozimjonovna,

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi

Bojxona instituti katta o'qituvchisi

durdonakamilova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ingliz va o'zbek tillarida biznes va tadbirkorlik terminlarining leksikografik tahlil tizimi ochib berilgan. Lug'atshunoslikda terminlar alohida o'ringa egadir. Bugungi kunga kelib hayotimizdagi barcha soha rivojlangani sayin biznes va tadbirkorlik sohalari ham keng ravishda rivojlanayotgani barchamizga ma'lum. Chog'ishtirma tadqiqot ishimiz uchun muhim bo'lgan, biznes va tadbirkorlik terminlari xususida leksikografiyada qanday ishlar olib borilgani haqida quyida to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: ingliz tili, o'zbek tili, biznes, tadbirkorlik, termin, so'z tizimi, terminologiya, tahli tizimi, leksikografik, lug'at

LEXICOGRAPHIC ANALYSIS SYSTEM OF BUSINESS AND ENTREPRENEURIAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

Kamilova Durdona Kozimjonovna,

Senior lecturer of State Customs Committee of the Republic of Uzbekistan

Customs Institute

Abstract: This scientific article reveals the lexicographic analysis system of business and entrepreneurship terms in English and Uzbek languages. Terms have a special place in lexicography. It is known to all of us that as all spheres of our life are developing, business and entrepreneurship are also developing widely. Below we will focus on the lexicography of business and entrepreneurship terms, which are important for our cross-research work.

Keywords: English language, Uzbek language, business, entrepreneurship, term, word system, terminology, analytical system, lexicographic, dictionary

СИСТЕМА ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОГО АНАЛИЗА ТЕРМИНОВ БИЗНЕС И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Камилова Дурдона Козимжоновна,

старший преподаватель

Государственный таможенный комитет Республики Узбекистан

Таможенный институт

Аннотация: В данной научной статье раскрывается система лексикографического анализа терминов бизнеса и предпринимательства в английском и узбекском языках. Термины занимают особое место в лексикографии. Всем нам известно, что по мере развития всех сфер нашей жизни широко развивается бизнес и предпринимательство. Ниже мы сосредоточимся на лексикографии терминов бизнеса и предпринимательства, которые важны для нашей перекрестной исследовательской работы.

Ключевые слова: английский язык, узбекский язык, бизнес, предпринимательство, термин, система слов, терминология, аналитическая система, лексикографический, словарь.

KIRISH

Ingliz va o'zbek tillaridagi sohalardagi terminlarni leksikografik tahlil etishdan oldin leksikografiya va uning o'rganish ob'ekti hisoblangan lug'at nimaligi xususida to'xtalib o'tishimiz joizdir. "Lug'at - Biror tildagi so'zlarni ma'lum tartibda jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob. So'z; tildagi barcha so'zlar majmui; so'z boyligi". Yuqoridagi fikrga hamohang tarzda bizning fikrimizcha lug'at - so'zlarning ma'lum bir maqsadda to'planib, tartibga solingan tizimli ko'rinishidir. "Lug'at tuzishning nazariy va amaliy tamoyillari haqidagi soha leksikografiya deb nomlanadi". Ko'rinib turibdiki, leksikografiya lug'atlar bilan shug'ullanuvchi sohadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Lug'at tilning so'z boyligini ko'rsatuvchi xazina, insonning bilim doirasini kengaytiruvchi omildir. Lug'ati boy bo'lgan insonlar nutqlari aniq va ma'noli bo'ladi. Shu sababdan ham so'z boyligi alohida qiymatga egadir. Lug'at tuzish doimo rivojlanib boradi, sababi eski so'zlar o'rnini yangisi egallaydi, boshqa tillardan turli sohalarga oid farqlicha terminlar tilning leksik qatlamiga kirib keladi. Shu sababli, turlicha so'zlarni yoki terminlarni bir lug'at holatiga keltirish murakkab ishdur. "Lug'atshunoslikning tilshunoslikdagi eng mashaqqatli soha"ligini nazariy leksikografiyaning asoschilaridan biri mashhur tilshunos akademik L.V.Scherba ham ta'kidlab o'tgan. Lug'at tuzishdagi qiyinchiliklarga va ko'p tarixga ega ekanligiga qaramay, bu soha rivojlanishi so'ngi ikki-uch asrga to'g'ri keladi. Buning asosiy sababi sifatida im-fanning, xususan, tilshunoslikning bosqichma-bosqich rivojlanishi desak o'rinli bo'ladi. Ilk yaratilgan lug'atlar oz miqdorda so'zlarni o'z ichiga olgan va qo'lyozma shaklda bo'lgan. Bugungi kunga kelib esa, lug'atlar ming hatto millionlab so'zlarni o'zida mujassam etadi. Texnologiyadagi bir qator rivojlanishlar sababli lug'atlar elektron yoki bosma kitob shaklida ommaga taqdim etilmoqda. Qo'shimcha ravishda, bugungi kunda

"Multilingual dictionary" lug'at tuzish keng ravishda rivojlanib bormoqda. Aytib o'tish joizki, zamonaviy lug'atlar tushuntirishlarni, izohlarni ba'zi o'rinlarda boshqa tildagi ekvivalentini ham o'zida mujassam etadi.

So'ngi yillarda, guvohi bo'layotganimizdek, lug'atlar faqatgina amaliy jihatdan tadqiq qilinibgina qolmay, uning nazariy yo'nalishlari, predmetlari va turli tillardagi leksikografiyaning chog'ishtirma tahlillari tilshunoslikda ommalashib bormoqda. Shu sababli ham lug'at tuzish, uning amaliy va nazariy jihatlarini keng ko'lamda o'rganish tilshunoslikning dolzarb sohalaridan biriga aylandi. Lug'at tuzish mashaqqatli ish bo'lishiga qaramay, qadimdan bu sohaga qiziqish yuqori saviyada bo'lgan. "Lug'atshunoslikni rivojlantirishda o'z hissasini qo'shgan buyuklarning nomi abadiy hurmatda bo'ladi. Buning yorqin isboti uchun bobomiz Mahmud Koshg'ariy nomini tilga olish kifoyadir. Uning qariyb 1000 yil ilgari yaratgan turkiy tillar tahliliga bag'ishlangan "Devonu lug'atit turk" asari barcha turkiy xalqlarning betakror boyligi hisoblanadi. Mahmud Qoshg'ariyning nomi esa tarix sahifalariga abadiy muhrlandi". Ilk na'munalar yaratilgandan so'ng asta-sekin lug'at tuzish shakllana boshladi. "Sharq leksikografiyasi haqida so'z borar ekan, uning rivojlantirishga katta hissa qo'shgan yurtdoshlarimiz Alisher Navoiy, Mahmud Zamahshariy, Muhammad Yoqub Chingiy, Muhammad Rizo Hoksorlarning ham o'rni beqiyosdir. Rus tilshunoslaridan esa A.A.Navikov, P.N.Denisov, B.V.Morkovkinlar o'zlarining ilmiy va amaliy ishlari bilan nazariy leksikografiyaning rivojiga o'z hissalarini qo'shganlar. G'arb tillari amaliy leksikografiyasi ham so'nggi asrda yangi pog'onaga ko'tarildi. Bu o'rinda ingliz tilining Oxford, Webster, frantsuz tilining La Russe, olmon tilining Duden, Langenscheidt, Rossiya nashriyotlarining sermahsul va sifatli lug'atlarini eslatib o'tish kifoya. Bunda nazariy jihatdan asoslangan, amaliy tomondan ma'lum maqsadga yo'naltirilgan lug'atlar yaratish va chop etish izchil yo'lga qo'yilgan. Demak, bizning nazarimizda ma'lum bir aniq maqsadga yo'naltirilmagan, olinayotgan-berilayotgan so'zlarning son va sifat jihatlari ilmiy asoslanmagan, faqat tuzuvchining "ta'bi" hamda iqtidori bilan chegaralanib qolayotgan lug'atlarni chop etish davri o'tdi. Alohida ta'kidlash lozimki, taraqqiy etgan mamlakatlar

leksikografiyasida, ayniqsa Amerika, Angliya, Frantsiya, Ispaniya, Italiya, Rossiya hamda Germaniya lug'atshunoslik amaliyotida lug'atlarning o'ziga xos tizimli sistemasi yaratilgan".

TAHLIL VA NATIJALAR

Ingliz tili dunyo bo'ylab keng tarqalgani va xalqaro til sifatida talqin etilganligi uchun ingliz tilshunosligida ayniqsa, biznes va tadbirkorlik terminlari xususida nafaqat ingliz olimlari, qolaversa, boshqa xalqlar tilshunoslari tomonidan ham keng o'rganilgan. Leksikografiya tomonidan kelib chiqadigan bo'lsak biznes va tadbirkorlikka doir bir qator **bir**, **ikki** va **ko'p** tilli lug'atlar tuzilgan. Ayniqsa bu ishlarda xorijiy tilshunoslarning asarlari salmoqli xajmga egadir.

Ushbu turdagi ishlarning yana biri "*Slovar' obscheupotrebitel'noy terminologii angliyskogo yazika delovogo obscheniya*" lug'atidir. "T.B.Nazarov ingliz tilida keng tarqalgan ishlatiladigan biznes va tadbirkorlik terminologiyasini va uni ishlatishning ayrim maxsus holatlarini aniq va to'liq ifodalab bergan. Bundan tashqari, lug'atda takrorlanuvchi iboralar bilan leksikofrazeologik muvofiqligi na'munalari, shuningdek, ko'plab misollar mavjud". Albatta ushbu lug'atlar o'z xususiyatidan kelib chiqqan ravishda ahamiyatga ega va ingliz tilidagi biznes va tadbirkorlikka oid terminlar leksikografiyasi boyishiga omil bo'lgan. Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, biznes va tadbirkorlik aloqasining ingliz tilidagi leksikografik asarlari orasida "*Anglo-russkiy slovar' po ekonomike i finansam*" lug'ati o'zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. "A.V.Anikina, 75 ming so'z va iboralarni o'z ichiga olgan va nazariy va amaliy iqtisodiyotni, shuningdek, moliya sohasini (buxgalteriya, fuqarolik va tijorat huquqi, soliqlar, qimmatli qog'ozlar bozori, sug'urta va h.k.)" ni lug'atda mujassamlay olgan. B.Moshkantsevaning shu soha xususidagi "*Russko-angliyskiy finansovo-ekonomicheskiy slovar'*" va A.V.Dudarovning "*Business and Entrepreneurship English for special purposes*" lug'atlari ham ingliz biznes va tadbirkorlikka oid sohaviy terminlarni o'zida jamlay olgandir [4].

Keltirib o'tilgan Rossiyalik tilshunoslardan tashqari boshqa xalqlar bir qator tilshunoslari ham biznes va tadbirkorlik terminlarini leksikografik jihatdan tahlil

qilib o'rganishgan va misli ko'rilmagan lug'atlar tuzilgan. Misol uchun, D.E.Lyuisning "*Instant Business and Entrepreneurship Dictionary*" lug'atida tadqiq etilayotgan sohaviy terminlar o'z ifodasini topgan, lug'at 3200 so'z, iboralar va qisqartmalardan iboratdir. Undan tashqari, D.E.Lyuis biznes va tadbirkorlik terminlarini ko'rib chiqish misolida ingliz tilidagi mavjud terminologik ta'limning belgilangan va yangi tendentsiyalarini ochib beradi. "*International bussines dictionary in nine languages- Internacia komerca-ekonomika vortaro en nau lingvoj: English, Esperanto, Deutsch, Español, Français, Italiano, Nederlands, Português, Svensk*" asari eng nufuzli lug'atlardan biri hisoblanadi va lug'at to'qqizta tillardagi biznes va tadbirkorlikka oid xalqaro terminlarni o'z ichiga olgan. F.Munniksma yuqorida e'tirof etilgan barcha tillarda 2812 ta terminlarni va ularga xos bo'lgan shartlarni talqin qilgan va lug'at sharhlarni ham o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda, tadqiq qilinayotgan sohalarda ishlatiladigan ko'plab terminlar D.Adamning "*Longman dictionary of business English with additional material by David Arnold*" va I.Markusning "*Ekonomika i biznes A-Ya: Slovar'-spravochnik*" lug'atlarida o'z ifodasini topgan. Aytishimiz mumkinki, so'nggi yigirma yillik davr oralig'ida lug'at tuzish kengaydi va o'z navbatida terminologik birliklar hajmi ko'payishiga ham sabab bo'ldi [4].

Ingliz tilshunoslari tomonidan tuzilgan bir qator biznes va tadbirkorlikka oid sohaviy terminlarni o'z ichiga olgan lug'atlar ham mavjuddir. Pearson nashriyoti tomonidan "*New Oxford Business and Entrepreneurship English Dictionary for Learners of English*" va "*Longman Business English Dictionary*" lug'atlari terib chiqilgan. "Lug'at terminlarni lug'at sifatida terish va ma'nosidagi farqlarini, murakkab so'zlarning ishlatilishini va ingliz va Amerika talaffuzining farqlanishini (30.000 dan ortiq) terminologik birliklarni qamrab oladi; shuningdek, "*Cambridge Business and Entrepreneurship English Dictionary*" ingliz tilidagi yangi lug'at hisoblanib, jumladan, 35 000 dan ortiq biznes va tadbirkorlikka oid so'zlar va iboralarni mujassamlashtirgan". Biznes va tadbirkorlik hujjatlaridagi terminlarni tasniflash va talqin qilishni o'z ichiga olgan

birinchi lug'atlardan biri YuNESKO uchun maxsus yaratilgan va xalqaro hujjatlarda ilgari ko'rib chiqilgan kichik biznes terminologiyasiga bag'ishlangan "Terminology of documentation" lug'atidir.

A.E.Branchning *"Multi-lingual Dictionary of Commercial, International Trade and Shipping Terms"* lug'ati xalqaro savdo-sotiq va tovarlarni tashish borasidagi bir qator terminlarni o'z ichiga olgan. Anonning *"Key Words in International Trade"* lug'ati, Evropa savdosining beshta asosiy tilida aniq zamonaviy biznes atamashunoslikni ta'minlaydi, bu shartlarni taqdim etishning qulay shakli va o'zaro bog'lanish tizimidir" [3].

Nomlari keltirib o'tilgan tilshunos olimlar tuzgan lug'atlardan tashqari biznes va tadbirkorlikka xos sohaviy terminlari uchun leksikografik asarlar quyidagilarda o'z ifodasini topgan: *"Dictionary of Economics"*; *"The McGraw-Hill Dictionary of Modern Economics. A Handbook of Terms and Organizations"*; *"International Dictionary of Finance"*; *"A Banking Dictionary"*; *"A Concise Dictionary of Business"*; *"Elsevier's Banking Dictionary"*; *"Harrap's Glossary of Spanish Commercial and Industrial Terms"*; *"Dictionary of Finance and Investment"*; *"The International Business Dictionary and Reference"*; *"International Tax Glossary"*; *"International Trade Law"*; *"Dictionary of Banking Terms"*; *"Encyclopedia of Banking&Finance"*; *"English-Spanish Banking Dictionary, Diccionario Bancario Español-Inglés"*; *"The McGraw-Hill Dictionary of International Trade and Finance"*; *"Elsevier's Fiscal and Customs"*; *"Oxford Dictionary of Accounting"*; *"Dictionary of Marketing Terms"*; *"Oxford Dictionary of Law"*; *"International Dictionary of Finance"*; *"Dictionary of business and economic terms"*; *"New Oxford Business English Dictionary for Learners of English"*; *"Oxford Entrepreneurship Dictionary"*; *"Dictionary of International Economics Terms"*; *"A Dictionary of Marketing"*.

MUHOKAMA

Guvohi bo'lganimizdek, lug'at tuzish keng ommalashganligi sababidan tilshunoslikda termin va terminologiyaga oid bir qator lug'atlar tuzilgan. Ayniqsa, dunyo tili sifatida deb talqin etiluvchi ingliz tilida biznes va tadbirkorlik terminlari

ko'plab tadqiq qilingan va bir qator turlicha ko'rinishdagi lug'atlar tuzilgan. Bu kabi ingliz tilidagi nafaqat tadqiq qilinayotgan sohalarga, qolaversa, boshqa sohalarga oid terminlar xususida tuzilgan lug'atlarga ko'plab misol keltirishimiz mumkin. Ammo, chog'ishtirma tadqiqot ishimiz uchun muhim bo'lgan o'zbek tilidagi biznes va tadbirkorlikka xos terminlar xususida tuzilgan lug'atlar haqida xam to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, leksikografiya sohasida o'zbek tilida ingliz tili kabi hali ko'plab lug'atlar tuzilmagan, nazariy jihatdan tadqiq etilmagan. Buning sababi sifatida ayta olamizki, birinchi navbatda O'zbekiston deyarli yangi mustaqil bo'lgan davlat, Angliya esa necha asrlardan beri boshqa mamlakatlarni o'z mustamlakasiga aylantirgan. Shunga qaramay, Mustaqillikdan so'ng bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan, natijada esa yuqorida keltirib o'tgan lug'atlarimiz tuzilgan. Ikkinchi sabab sifatida ingliz tili ko'p mamlakatlarda rasmiy va xalqaro til bo'lganligi bois bu tilda asosan xorijiy tilshunos olimlar keng faoliyat yuritganlar deb aytishimiz mumkindir. Qolaversa, bugungi kunga kelib O'zbekistonda biznes oldingi davrga nisbatan keskin rivojlanmoqda, natijada esa ushbu sohaga xos bo'lgan terminlarni o'rganishga talab kuchayadi. Umuman olganda, biznes va tadbirkorlik sohasiga tegishli bo'lmasa-da o'zbek tilida boshqa yurtimizda keng ommalashgan sohalarga tegishli terminlar borasida bir qator bir va ikki tilli lug'atlar tuzilgan. Bu esa o'z navbatida, tilshunosligimizda, ayniqsa terminologiya sohasida bo'layotgan rivojlanish va intilishdan dalolat desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ingliz tilidagi manbalarga, xususan, tadqiq qilinayotgan sohalarga oid terminlar xususida bir qator lug'atlar tuzilgani barchamizga ma'lum. Buning asosiy sababi sifatida yuqorida eslatib o'tganimizdek ingliz tilining dunyo bo'ylab keng tarqalganligidir. Qolaversa, ko'plab biznes muzokaralar olib boriladigan markaziy joy Amerikada joylashganligidir. Shu sababdan ham ingliz tilshunosligidagi terminologiyalar mahalliy tadqiqotlar tahlillari bilan cheklanib qolmay balki xorijiy tilshunos olimlar tomonidan ham keng tahlil etilgandir.

XULOSA

O'zbek tilshunosligi yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng asta-sekin rivojlana boshladi. Hozirga qadar, tilshunoslikda terminologiya borasida bir qator salmoqli tadqiqotlar o'tkazildi. Olib borilgan barcha tadqiqotlarda asosan, hozirgi davr o'zbek terminologiyasini oldinga davrlardagi terminlar bilan taqqoslash, turkiy tillardagi terminlar bilan qiyosiy tahlil qilish ishlari olib borilgan. Albatta, bu qisqa davr uchun ulkan ahamiyatga molik ishlar jamlanmasidir. So'nggi ikki-uch yildan buyon xorijiy tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab oldingilarga qaraganda keng tus oldi. Shu sababdan ham ingliz va o'zbek terminlarini ayniqsa, biznes va tadbirkorlikka oid terminlarni chog'ishtirma tadqiq qilish tilshunos olimlar faoliyatida ommalashib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. - Л.: 1971
2. Kamilova Durdona Kozimdjanoyna Features of borrowing economic terms in the Uzbek language // Integration into the world and connection of sciences International scientific and practical online conference. Azarbayjan. Baky. -January 2021. DOI http://doi.org/10.37057/A_7. C.100-101
3. Kamilova Durdona K. Comparative analysis of the terms in the sphere of "business and entrepreneurship" in English and Uzbek // Novateur Publications Journal NX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 – 4230 Volume 8, ISSUE 3, Mar. -2022. Journal Impact Factor: 7.223. P.9-12
4. Kamilova Durdona K. Lexicographic Analysis of the Terms "Business and Entrepreneurship" in English and Uzbek International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | e-ISSN: 2792-3983 | www.openaccessjournals.eu | Volume: 1 Issue: 5//P. 57-59
5. Bazarova U.M. Spiritual and moral education of students in the use of technology in the preparation of future professionals for innovative activities in foreign language classes' //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
6. <https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=2245&context>
7. Осадчая, И.М. Бизнес: Оксфордский толковый словарь: Англо-русский: свыше 4000 понятий / И.М. Осадчая. – М.: Прогресс-Академия РГГУ, 1995. – 746 с.